

## Koreyada yashovchi chet el fuqarolari uchun (60 yosh va undan kattalar) Covid-19ga qarshi vaktsina bilan emlashning 4 kursini (revaksinatsiya) o'tkazish bo'yicha qo'llanma.

Omikron shtammining tarqalishi tufayli keksa yoshli patsiyentlar guruhida tasdiqlangan holatlar va o'lim holatlarining soni oshib bormoqda. Fuqarolarni COVID-19 infeksiyasi tufayli vujudga kelgan og'ir simptomatikadan va o'limdan himoyalash uchun hukumat Koreyada yashovchi chet el fuqarolari uchun (60 yosh va undan kattalar) emlashning 4 kursini o'tkazmoqda.

### ■ Emlash kerak bo'lgan shaxslar

#### ○ 4 oy (120 kun) oldin Koreya hududida yoki chet elda emlashning 3-chi kursidan o'tgan shaxslar

60 yosh (1962 yilning 31 dekabrighacha tug'ilganlar) va undan katta bo'lgan shaxslar orasida. Simptomatika og'ir kechishi ehtimoli yuqori bo'lgan 80 yoshdan katta shaxslarda esa biz emlashning 4-chi kursini o'tkazishni **qat'iy tavsiya qilamiz**.

\*3-chi emlashdan keyin sizda COVID-19 yuqtirilganligining dalili bo'lsa ham, o'z istagingizga ko'ra emlanib olishingiz mumkin.

### ■ Vaktsina turi, davriyligi

○ Hozirgi paytda biz mRNK-vaksinadan (Pfizer, Moderna) va Novavax vaksinadan foydalanamiz.

○ Agar emlashning 3-chi kursidan keyin 4 oy (120 kun) o'tgan bo'lsa, 60 yosh va undan katta bo'lgan shaxslar emlashning 4-chi kursidan o'tishlari mumkin.

Shunga qaramasdan, ommaviy yuqtirish ehtimoli bo'lgan shifoxonalarda va tibbiy muassasalarda (jumladan, psixiatrik tibbiy muassasalarda) ishlaydigan shaxslar yoki immuniteti past bo'lganligi tufayli emlash oralig'ini qisqartirish zarur bo'lgan shaxslar emlashning 3-chi kursidan keyin 3 oy (90 kun) davomida 4-chi kursini olishlari mumkin.

### ■ Sanasi va joyi

○ **Dastlabki ro'yxatdan 2022 yilning 18 aprel(dushanba)dan boshlab o'tish mumkin.** Ro'yxatdan o'tgan shaxslar **2022 yilning 25 aprel(dushanba)dan boshlab emlanishi mumkin.**

○ Agar tegishli tibbiy muassasalarda vaktsina mavjud bo'lsa, **2022 yilning 14 aprel(payshanba)dan boshlab har kuni** emlanishdan o'tish mumkin.

○ **Emlashni o'tkazish joylariga COVID-19ga qarshi emlash o'tkaziladigan tibbiy muassasalar kiradi.** Siz tibbiy sug'urtangizdan qat'iy nazar vaktsina olishingiz mumkin. Shunga qaramay, agar tibbiy muassasalarda emlash imkoni bo'lmasa, siz mahalliy hukumat organining talabiga qarab davlat sog'liqni saqlash markazida vaktsina olishingiz mumkin.

### ■ Oldindan navbatga yozilish usuli

**1. Koreyada asosiy emlashdan va emlashning 3-chi kursidan o'tgan, 60 yosh va unda katta yoshdagi chet el fuqarolari.**

**1) Ro'yxatdan o'tgan chet el fuqarolari:** Asosiy emlash holatidagi kabi siz onlayn yoki telefon orqali navbatga yozilishingiz mumkin.

① Onlayn ravishda navbatga yozilish: Covid-19ga qarshi emlashdan o'tish uchun ro'yxatga olish tizimiga ulaning (<https://ncvr.kdca.go.kr>) va shaxsan yoki vakolatlangan shaxs orqali ro'yxatdan o'ting.

② Telefon orqali navbatga yozilish: Koreyaning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish agentligining koll-markaziga murojaat qiling (☎1339) yoki ro'yxatdan o'tish masalalari bo'yicha maslahat olish uchun telefon orqali mahalliy hukumat organiga qo'ng'iroq qiling

③ Emlash kuni: Tibbiy muassasada dastlabki ro'yxatga qo'yilganingizdan so'ng (Telefon orqali tekshirish) keyingi kuni emlashdan o'ting

\*SNS orqali qolgan vaktsinani olishga ro'yxatdan o'tish imkoni nazarda tutilgan

**2) Ro'yxatdan o'tmagan chet el fuqarolari (jumladan, noqonuniy istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari):** Siz asosiy yoki 3-chi vaktsinani olgan jamoat sog'liqni saqlash markazida berilgan vaqtinchalik nazorat raqami yordamida telefon orqali yoki emlash agentligiga (tibbiy muassasa yoki jamoat sog'liqni saqlash markazi) tashrif buyurib navbatga yozilishingiz mumkin mumkin.

\* Vaqtinchalik nazorat raqami berilishida sizga shaxsingizni aniqlovchi hujjatni, masalan, pasport yoki chet el fuqarosi ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomani ko'rsatish talab etilmaydi.

**2. Chet elda emlashning asosiy va 3-chi kursini olgan, 60 yosh va undan katta yoshdagi chet el fuqarolari (jumladan, Koreyada 90 kundan kam muddat turayotgan chet el fuqarolari).**

○ O'zingiz bilan shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni olib, yaqin orada joylashgan jamoat sog'liqni saqlash markaziga tashrif buyuring, vaqtinchalik nazorat raqamini oling, chet elda emlashdan o'tganligingiz to'g'risidagi yozuvingizni ro'yxatdan o'tkazing va telefon orqali yoki vaktsinatsiya agentligiga (tibbiy muassasa yoki jamoat markazi) tashrif buyurib navbatga yoziling.

### ※ Izoh

- **Sizning shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatingiz bo'yicha axborot faqat emlash maqsadida ishlatiladi va Xabar berishdan ozod qilish tizimiga muvofiq sizning noqonuniy istiqomat qilayotganingiz haqida Koreya Migratsiya**

**xizmatiga xabar yuborilmaydi.**

- Qo'shimcha axborot Koreya Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish agentligining (KDCA) Covid-19ga qarshi emlashga bag'ishlangan bosh sahifasida keltirilgan (<https://ncv.kdca.go.kr>).